

## TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOIIY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

**Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li**

*FarDU, Sirtqi bo'lim, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:**

Tolerantlik, fenomen, etnik, konfessiya, bid'at, axborot soati, sotsiologik lug'at.

### Annotatsiya

Mazkur maqola talabalarda tolerantlikni rivojlantirish va buning ijtimoiy muammo sifatida talqin etilishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning tavsiyalari ifodalangan. Shuningdek, maqolada mazkur masala yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ham o'z ifodasini topgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Hozirgi davrda yosh avlodda tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Yoshlarda ijtimoiy muloqot jarayonida toqatli va bag'rikeng munosabatning shakllanishi ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlik uchun muhim omil bo'lib hizmat qiladi. Shuningdek, tolerantlik o'zgalarning fikri va xatti-harakatlariga chidamlilikni, ularga toqatlilik bilan munosabatda bo'lishni, achchiqlanmaslikni anglatadi.

Tadqiqotimiz ishida talabalarda tolerantlikni rivojlantirishning psixologik vazifalari, shakl va usullarini tadqiq etish maqsad qilingan bo'lib, ushbu ishni amalga oshirishdan avval tolerantlik kategoriyasining mazmun-mohiyati, lug'atlarda, ilmiy adabiyotlarda tarflanishini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Tolerantlik tushunchasi ingliz olimi P.Medavar tomonidan ilmiy hamjamiyatga 1953 yilda ko'chirib o'tkazilgan begona to'qimaga nisbatan organizm immun tizimining chidamliligini ifodalash maqsadida taklif etilgan. Falsafada qomusiy lug'atda tolerantlikni chidam va sabr-toqat sifatida talqin etiladi. Shuningdek, bu tushunchani bag'rikenglik bilan bog'lab, «o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli, chidamli bo'lish, bir-biriga o'xshamagan odamlarning birga ahillikda yashashga intilishidir. Biron bir insonda yoki biron bir begona madaniyatda bizga nimadur yoqmasligi mumkin, biroq ular o'zgalarning huquq va manfaatlariga ziyon yetkazmasa, joriy qonunlarni buzmasa ularning mavjudligi va rivojlanishini tan olishimiz kerak». Shunday ekan tolerantlik o'zgalarning xatti-xarakati va fikr mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga toqatli, chidamli va kengfe'lilik bilan munosabatda bo'lishni anglatadi. O'zgalarning fikriga, mulohazalariga va e'tiqodlariga tabiiy ravishda bo'ysunishni anglatmaydi. Ijtimoiy ishga oid ensiklopedik lug'atda tolerantlikni boshqalarning madaniy, irqiy va boshqa tafovutlarini tan olish, qadrlash va hurmat qilish, ularga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lish sifatida ta'riflanadi.

Tolerantlik bugungi kunda insonlar hayotini tartibga soluvchi kuchli vosita sifatida davlat tuzilishi, ijtimoiy tizimda va inson huquqlarining rivojlanishida yetakchi omil bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, talabalarda aynan "Axborot soati" darslarida tolerantlikni shakllantirish o'ta

muhim psixologik jarayon sanaladi. Bu jarayonni tashkil etishda esa o'quv vositalari va o'qituvchining o'rni beqiyos hisoblanadi. Zero, tolerantlik tushunchasi o'z tarkibiga chidam, bardosh, o'zgalarning hayot tarzi, fikrlashi, xatti-harakati, qadriyatlariga toqat qilish, ularga hurmat nazari bilan qarash, atrofdagilarni kamsitmaslik kabi tushunchalarni ham qamrab olgan.

Ta'lim jarayonida talabalarning o'qituvchi, kursdoshlari bilan hamkorlik qilishlarini ta'minlovchi ma'naviy hamda ruhiy kechinmalar ham tolerantlik xislatlarini ifodalovchi fazilatdir.

O'zbek tadqiqotchilaridan biri M.Xajjevaning fikricha, tolerantlik turli ijtimoiy va e'tiqodiy tafovutlarga ega insonlar va millatlarni bir biriga bog'lab, ular o'rtasida do'stona munosabatni va muhitni yaratish orqali ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydi. Tadqiqotchi Z.Husniddinov esa, bu tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: «tolerantlik umumiy ma'noda biror narsa, hodisani, o'zgacha fikr va qarashni, o'z shaxsiy tushunchalaridan qat'iy nazar, imkon qadar chidam va toqat bilan qabul qilishni anglatadi». Ayrim tadqiqotchilar esa, bu tushunchani o'zlikni namoyon etishga hurmat va uni qanday bo'lsa, shunday qabul qilishdir, degan fikrni ilgari surishadi: «tolerantlik – bu xilma-xillikdagi uyg'unlikdir. Bu jahon madaniyatining xilma-xilligi, o'zligimizni namoyon qilish shakllari va insoniy fazilatlarini ifodalash usullariga hurmat va uni qabul qilishdir». M.Bekmurodov va E.Karimovalar fikricha, ijtimoiy-ruhiy tasnif talablariga ko'ra, tolerantlik anglangan va anglanmagan shaklda bo'ladi. Shu bilan birgalikda, tolerantlikni millatlararo, fuqarolararo, davlatlararo, aholi yosh qatlamlararo, madaniyatlararo, partiyalararo, qadriyatlararo, konfessiyalararo, hududlararo, urug'-qabilalararo, jamoalararo shakllarini ajratib ko'rsatishadi. Boshqa bir olim Z.Husniddinov fikriga ko'ra, «diniy bag'rikenglik esa vijdon erkinligi nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etib, boshqa shaxsning diniy e'tiqodi o'zga dinga, uning vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, turli din hamda konfessiya vakillari e'tiqodida aqidaviy farqlar bo'lishiga qaramay, ularning yonma – yon va o'zaro tinch – totuv yashashini anglatadi. Diniy tolerantlik to'la ijtimoiy teng huquqlilik, inson erkinligiga nisbatan zo'rvonlikni qoralovchi qarashlar va munosabatlarda yaqqol namoyon bo'ladi».


G'arb olimi G.Ayzenk tolerantlikni chidamlilik, murosasozlik va o'zga olam bilan muloqotga kirishiga ruhsat berish, unga nisbatan erkinlik va toqatlilik sifatida ta'riflaydi. «Rossiyada chop qilingan sotsiologik lug'atda tolerantlikka quyidagicha ta'rif beriladi: a) Yod odamning turmush tarzi, xulqi, urf-odat, xissiyoti, fikri, g'oyasi, e'tiqodiga chidamlilik bilan yondashuv; b) noqulay omillarni sezmay qolish natijasida sodir bo'lgan xodisalarga bag'rikenglik bilan yondashuv; v) noqulay, nomaqbul hissiy omillar ta'siriga ham chidam bilan yondashuv». Yana bir olim M. Natturmo nuqtai nazari bo'yicha, «biz erkin va ongli mavjudot bo'lganligimiz sababli aybni atrofdagilarga ag'darishdek bid'atlardan xoli bo'lishimiz kerak. Alalxusus, bu tolerantlikka aloqador bo'lib, ushbu tolerantlikni uzoq muddat erkinlikka to'siq bo'lib kelgan diniy, etnik va irqiy xurofatlarni yengib o'tish yo'lidagi urinishlarimiz sifatida tafsivlash mumkin». Shuningdek, «tolerantlik – bu yoqmaydigan, xatto yovuz deb hisoblanuvchi narsalarga toqat bilan munosabatda bo'lishdir». Demak, tolerantlik juda keng falsafiy tushuncha bo'lib, o'zida toqatli bo'lish, bag'rikenglikni namoyish qilish, turli g'oya, qarash va e'tiqodni teng yashovchanligini e'tirof etish va ularga samimiy munosabatda bo'lish tushuniladi.

Nazariy tahlil natijalari asosida talabalarda tolerantlik ya'ni faol, boshqalarning fikriga, dunyoqarashiga va harakatlariga notabiiy ravishda bo'ysunishni empirik tadqiq etish uchun Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti va Urganch davlat universitetidan 108 nafar 1-bosqich va 3-bosqich talabalari tanlab olindi (1.1-jadval).

### 1.1-jadval OTMLar kesimida tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilar nisbati

	Soni	Foiz
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti	53	49%
Urganch davlat universiteti	55	51%
Jami	108	100%

Tadqiqotimizda ishtirok etgan sinluvchilarning 59 nafar ayol (55%) va 49 nafar erkak (45%) ishtirok etdi. Ularning taqsimlanish foizlari meyorlarga mos keladi (1.1-rasm).



### 1.1-rasm. Empirik tadqiqotlarda ishtirok etgan sinluvchilarning jins tahlili

Biz tadqiqot ishimizda Soldatovning Tolerantlik indeksi so‘rovnomasi, V.V.Boykoning Kommunikativ tolerantlik diagnostika qilish metodikasi, D.Kempbellaning Hayrixoxlikni aniqlash testlaridan foydalandik. Metodikalarimizning parametrik yoki noparametrik mezonlarga mansub ekanini aniqlash maqsadida Kolmogorov Smernov mezonidan foydalandik va natijalar tahlilini amalga oshirdik (3.2-jadval).

1.2-jadval

### Kolmogorov Smirnov mezonida aniqlangan natijalar tahlili

Ko‘rsatkichlar	Kolmogorov Smernov mezonini (D)	Ishonch darajasi (p)
Etnik bag‘rikenglik	0,929	0,354
Ijtimoiy bag‘rikenglik	1,044	0,225
Barkamollik	1,226	0,099
Individual tolerantlik	1,790	0,003**
Avtotsentrizm	1,619	0,011*
Fikrlar qat‘iyligi	1,288	0,072
Nizolashuvchanlik	1,034	0,235
Atrofdagilarni tarbiyalashga intilish	1,212	0,106
Boshqalarni o‘ziga moslashtirishga intilish	1,413	0,037*
Qasoskorlik	1,044	0,225
Diskomfortga chidamlilik	1,271	0,079
Moslashuvchanlik qobiliyatlari	1,340	0,055
Xayrixoxlik darajasi	1,741	0,005**

Kolmogorov Smirnov mezonini natijalariga asosan Soldatovning Tolerantlik indeksi so‘rovnomasining etnik bag‘rikenglik shkalasi ( $D_z=0,929$ ;  $p>0,05$ ), ijtimoiy bag‘rikenglik shkalasi ( $D_z=1,044$ ;  $p>0,05$ ), barkamollik shkalalari ( $D_z=1,226$ ;  $p>0,05$ ) normal taksimlanish konuniga mos keladi va biz keyingi ishlarimizda Student-t mezonini, Dispersion taxlil mezonini va Pirson mezonlaridan foydalanishimiz mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Asqarov, A. (2022). MAKTABGACHA YOSH DAVRDA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK ASPEKTLARI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(6), 882-883.
2. Asqarov Anvarjon Rahimjon o'g'li. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AQLIY TARAQQIYOTINING RIVOJLANISHIDA O'YIN RIVOJLANTIRUVCHI FAOLIYAT SIFATIDA. *Uzbek Scholar Journal*, 5, 207-209.
3. A. Askarov (2022). CREATIVE THINKING IN PRESCHOOL SOCIAL PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPMENT. *Science and innovation*, 1 (B8), 87-91. doi: 10.5281/zenodo.7336270
4. Rahimjon o'g'li, A. A. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MANTIQUIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(2), 116-119.
5. "Motivatsiya nazariyalari va ularni tashkilotlarda qo'llash: xatarlarni tahlil qilish": Tadqiqot pog'onasi. 2019.11.27. *Researchleap.com*.
6. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). SPORTCHI PSIXOLOGIK SALOMATLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 117-121.
7. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE SPORTSMAN PERSONALITY DURING COMPETITIONS. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 215-221.
8. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). Motiv Va Motivatsiya Muammosining Jahon Va Mahalliy Psixologlar Tomonidan Tadqiq Etilganligi. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(11), 256-259.
9. Rakhmatdjonov Shokhjahan Dilshodbek o'g'li. (2022, January 23). THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE IN PROVIDING THE PSYCHOLOGICAL HEALTH OF THE ATHLETE. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, Canada.
10. Qurbonova, S. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA AQLIY INTELEKTNING RIVOJLANISHI.
11. Noxida, D., & Saida, Q. (2022). TALABA QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 309-314.
12. Рахимова, Қ. Н. Қ. (2022). Яшил бизнес ахамиятининг ортиб боришининг ижтимоий-иқтисодий зарурати. *Scientific progress*, 3(2), 880-885.
13. Rakhimova, K. (2022). SOCIO-ECONOMIC NECESSITY OF INCREASING THE IMPORTANCE OF GREEN BUSINESS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(4), 1034-1037.
14. Husanbek, Q., & Raximova, K. N. (2022). OILAVIY KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURIYATI. *Gospodarka i Innowacje*. 24, 1103-1108.
15. Мохигул, А. & Рахимова, К. (2022). ҚУРИЛИШ МАТЕРИЛЛАРИ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА ИШЛАБ ЧИКИШ ПОТЕНЦИАЛИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ СТРАТЕГИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 999-1002.

16. Raximova, K. N., & Abdurahmon Mominjon og, A. (2022). YASHIL HOM–ASHYOLARDAN QURILISH SOHALARIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGI. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 957-960.
17. Qizi, R. K. N. M., & Kadirovna, A. M. (2022). ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI ISTIQBOLLASHTIRISH. *Ta'lim fidoyilari*, 8, 149-153.
18. Рахимова, К. Н. Турсунов, О., Мирзаев, Р. Б., Ахмадалиева, М. К., & Кодиров, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА «ЯШИЛ МОЛИЯ» ТИЗИМИНИ ЙЎЛГА ҚЎЙИШ ВА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 28, 90-96.
19. Kizlarkhon, R. (2022). ECONOMICAL USE OF LAND AND WATER RESOURCES WITH THE OPTIONS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(09)*, 148-151.
20. Абдусаматов, Д. А. (2022). КЛАССИФИКАЦИЯ ПРИЕМНИКОВ ОПТИЧЕСКОГО ИЗЛУЧЕНИЯ ДЛЯ РАЗРАБОТКИ ОПТОЭЛЕКТРОННЫХ ИНФОРМАЦИОННО-ИЗМЕРИТЕЛЬНЫХ СИСТЕМ. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 986-988.
21. Абдусаматов, Д. А., & Рахимов, Н. Р. (2021). Технологические Особенности Изготовления Афф-Пленок И Приборных Структур На Их Основе.
22. Рахимов, Н. Р., & Абдусаматов, Д. А. (2021). Определение Природы Возникновения Аномального Фотонапряжения И Разработка Оптрона На Их Основе.
23. Madvaliyev B., Rakhimova K. The Role of Small Business and Private Entrepreneurship in the Economy //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 264-267.